




ISSN: 3060-4613



13.00.00	13.00.06	01.00.00
13.00.01	13.00.07	02.00.00
13.00.02	13.00.08	03.00.00
13.00.03	13.00.09	09.00.00
13.00.04	07.00.00	10.00.00
13.00.05	19.00.00	11.00.00

№6/2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga  
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 160 sahifa,  
5-iyun, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lif universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

Gafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarkand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rindosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan*

*Qirg'izboev Abdug'affor Karimjonovich – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiiev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiysi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Iqim o'zgarishi muammolari va "yashil ko'nikmalar"ning rivojlanishi.....	14
Abdurashit Karimovich Avliyaqulov	
TTJlardagi qizlarni qo'llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish.....	18
Xasanboy U. Abdusamatov	
Integrativ yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy va tahliiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy omili .....	26
Jalilov Nodirjon Azamatovich	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sibling munosabatlari diagnostikasi.....	30
G'ayibova Nargiza Anorbayevna	
Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari .....	33
Hakimova Gulmira To'xtatoshevna	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni muzey pedagogikasi vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari.....	37
Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi	
Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda o'zbek tilining ta'siri .....	41
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Сторителлинг как инструмент формирования ценностных ориентаций старшеклассников .....	44
Умрихина Виктория Игоревна	
Формирование эстетических предпочтений учащихся музыкальных школ в условиях инклюзивного образования на основе стилевого подхода .....	52
Ахунова Умида Ойбековна	
Sun'iy intellektning ta'limga integratsiyasi: o'qitish va boshqaruvdagi o'rni .....	55
Abduxamidova Muyassar Xalimjon qizi	
Buxorodagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi.....	60
Axrorov Ixtiyor Doniyorovich	
Inklyuziv ta'lim sharoitiда imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvida oila va matabning roli .....	63
Dadaboyev Jahongir Sherdil o'g'li	
Влияние длительной госпитализации на образовательную траекторию ребенка: междисциплинарный подход .....	67
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
O'yinning bola faoliyatasi sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi.....	75
Otasheva Lola Shoto'rayevna	
Psixologik tadqiqotning umummetodologik va xususiy metodologik tamoyillari .....	78
Xodjimatova Nazira Toshmatovna, Mallayeva Guishoda Maxmudjonovna	
Rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda inklyuziv ta'limgning o'rni .....	81
B. Xusniddinova	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish .....	85
Zulaykho Samatovna Ro'ziyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini dars jarayonida rivojlantirish texnologiyasi .....	89
Xudaybergenova Nawrizbiyke Qanat qizi	
Sonlarni obrazlar bilan bog'lash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi.....	92
Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna	
Methodology of Teaching English to Preschool Children .....	96
Khurshida Tojmurodova	
Malaka oshirish jarayonida yo'riqchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyati..	100
Ch. B. Nalibayeva	
O'qituvchilarning o'quvchilar bilan hamkorlik munosabatlari .....	103
G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi	
Falsafada haqiqatni izlash: empirizm va rasionallizmning o'rni .....	106
Boymirzayeva Xurshida Sobirovna	



Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun axborot bilan ishlashni o'rgatishning didaktik asoslari .....	110
Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li	
An Evaluation of the Impact of The Theme-Based Approach on Young Learners' Speaking Development..	113
Khamraeva Gulchekhra Ibrakhimovna	
O'smirlar o'rtaida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar .....	118
Majidov Jasur Baxtiyarovich, Xolmatova Dilorom Vahobjon qizi	
Informatika fanini o'qitishda mobil dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari .....	123
Jo'rayev Ilhom Isxoqovich	
Muqimiylashtirish asarlari vositasida talabalarda kitobxonlik tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish .....	126
Muxlisa Satriddinovna Muhibdinova	
Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi .....	132
Nuritdinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarni ruhlantirish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	136
Umarova Feruzabonu Bobir qizi, Samandarova Dildora Javlon qizi	
Tizimli-faoliyatli yondashuv asosida umumpedagogik akt kompetentlikni shakllantirish muammosining nazariy-metodologik jihatlari.....	139
Saloxiddinova Umidaxon Mansurjon qizi	
Nutqiylashtirish asarlari kamaytirishda o'yinlarning o'rni.....	143
Jabborova Oltinoy	
Matn bilan ishslash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati .....	146
Soliyev Umidjon Yulchivoyevich	
Ta'limga tizimini boshqarishda talabalar boshqaruvining qiyosiy tahlillari .....	150
Uzaqov Nomozali Hamdamovich	
Zamonaviy ta'limga muassasalarida pedagoglarning boshqaruv malakasini rivojlantirish yo'llari .....	153
Z. M. Zarifova	

# BUXORODAGI JADIDCHILIK HARAKATINING O'ZIGA XOSLIGI VA MAKtablARDAGI TA'LIM TIZIMI

Axrorov Ixtiyor Doniyorovich

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yangi ma'rifatchilik harakati vakillarining turli sohalardagi rivojlanishga qo'shgan hissasi yoritilgan. Ayniqsa, Buxorodagi ta'limgarayoni, jadid maktablarining tashkil etilishi va rivojlanishi, bilim berish metodlari, o'quv adabiyotlarini yaratish, shuningdek, bosma nashrlar, sahna san'ati va zamonaviy adabiyot sohalaridagi faoliyatlarini tarixiy manbalar asosida tahlil qilinib, ilmiy-nazariy yondashuv bilan yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik harakati, o'qitish tizimi, taraqqiyot, ta'limgarayoni, tarbiya, darslik, matbuot, sahna san'ati, teatr, kutubxonasi.

**Abstract:** This article explores the contribution of representatives of the new enlightenment movement to the development of various fields. In particular, it analyzes the educational process in Bukhara, the establishment and evolution of Jadid schools, teaching methodologies, creation of educational literature, as well as activities in publishing, performing arts, and modern literature. The study is based on historical sources and employs a scientific-theoretical approach.

**Key words:** jadid movement, education system, progress, teaching, upbringing, textbook, press, performing arts, theater, library.

**Аннотация:** В данной статье освещён вклад представителей нового просветительского движения в развитие различных сфер. Особое внимание уделено образовательному процессу в Бухаре, организации и развитию джадидских школ, методам преподавания, созданию учебной литературы, а также деятельности в области печати, театрального искусства и современной литературы на основе исторических источников и научно-теоретического подхода.

**Ключевые слова:** джадидское движение, система образования, прогресс, обучение, воспитание, учебник, печать, театральное искусство, театр, библиотека.

## KIRISH

Jadidchilik harakati O'zbekiston va butun Markaziy Osiyoda XIX asr oxiridan XX asr boshlariga qadar kuchaygan bo'lib, uning asosiy maqsadi ma'rifatni yangilash, an'anaviy ta'limgarayoni isloq qilish va xalq ongini uyg'otishdan iborat edi. Bu harakat o'z mohiyatiga ko'ra islohotchilik ruhi bilan yo'g'rilgan bo'lib, uning yirik markazlaridan biri Buxoro shahri bo'lgan. O'sha davrda Buxoro diniy va ilmiy markaz sifatida tanilgan bo'lsa-da, bu yerda amal qilgan an'anaviy ta'limgarayoni ko'pincha diniy e'tiqodlarga asoslangan, zamonaviy ilmiy yondashuvlardan yiroq edi. Maktab va madrasalarda o'quvchilar asosan diniy fanlarni o'rgangan, dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lmagan.

Bunday muhitda jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va rivojlanishi o'z-o'zidan muhim tarixiy zarurat edi. Jadidlar – yangi pedagogik metodlar, ilm-fan yutuqlari, zamonaviy dunyoqarash va modernizm g'oyalarini ta'limgarayoniga olib kirishga intildilar. Ular matematika, tabiiy fanlar, geometriya kabi sohalarga alohida e'tibor qaratib, yangi maktablar tashkil etishni boshladilar. Ayniqsa, 1893-yilda Buxoro amiri Abdulahadxon ruxsati bilan ochilgan birinchi yangi usul maktabi ushbu harakatning amaliy bosqichini boshlab berdi. Keyingi yillarda bu tashabbuslar jadallik bilan davom etdi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jadidchilik harakati vakillari orasida Buxorodagi o'zgarishlar jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatgan shaxslar ham mavjud bo'lib, ularning asarlari orqali davrning ta'limgarayoni islohot zarurati yaqqol ko'zga tashlanadi. XIX asrning 50-yillarida Amir Nasrulloh saroyida bosh xattot va rassom bo'lib ishlagan, keyin esa ma'rifi-

fatparvarlik yo'lini tanlagan Ahmad Donish o'z asarlarida Buxorodagi an'anaviy ta'limgning cheklovlarini tanqid qilgan. U bilan bir davrda yashab ijod qilgan Sadriddin Ayniy va Abdurauf Fitrat kabi jadid namoyandalari ham o'z asarlarida xalqni zamonaviy bilimlarga yuz burishga chaqirganlar.

1908-yilda Abdulvohid Munzim tomonidan ochilgan tojik tilidagi yangi usul maktabi ham bu yo'nalishdagi muhim qadam bo'ldi. Biroq an'anaviy qarashlarga sodiq bo'lgan ruhoniylar tomonidan bu maktablarga kuchli qarshilik ko'rsatildi. Maktablarning vayron qilinishi, A. Munzimning hayotiga xavf tug'ilishi va jadid o'qituvchilarining yashirin faoliyatga o'tishi tarixiy manbalarda keng yoritilgan. Ayniyning "Tarbiyayi atfol" tashkiloti faoliyati va 1911–1912-yillarda Buxoroda 50 dan ortiq yangi maktablar ochilishi esa bu harakatning qanchalik ommalashganini ko'rsatadi. Bu faktlar S.Ayniy, A.Munzim va boshqa jadidlarning esdaliklari hamda tarixiy manbalar orqali tasdiqlanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda asosiy ma'lumotlar tarixiy hujjatlar, jadid namoyandalarining asarlari, arxiv manbalari va davr matbuotidan olinib, ularning mazmuniy tahlili orqali Buxorodagi jadidchilik harakati va maktablar tizimidagi o'zgarishlar o'rganildi. Tahlil jarayonida tarixiy-taqqoslov va kontent tahlil usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

1911–1912-yillarda Buxoro amirligi hududida 57 ta yangi usul maktablari faoliyat yurita boshlagan. Ushbu maktablar orasida Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Xolidxoji Mehri va Mukomil Burhonov nomlari bilan atalgan maktablar eng ilg'orlari sifatida e'tirof etilgan. Ayniqsa, Mulla Vafo maktabida rus tilini o'qitishga alohida e'tibor qaratilgan. Yangi usuldagagi ta'lim tizimi amirlikning Qarshi, Shahrisabz, Qorako'l va G'ijduvon kabi boshqa shaharlariga ham tarqalgan.

Biroq 1914-yil iyun oyida Buxoroning oliv ruhoniysi bosimi va siyosiy agentlikning roziligi bilan Amir Olimxon farmoni asosida ushbu maktablar yopilgan. Shunga qaramay, yangi usul maktablarining ta'siri va samaradorligi haqida jamiyat, ayniqsa ziyorolar ongida shakllangan ijobiy qarashlar chuqur ildiz otgan edi. Shu sababli qat'iy taqiqqlarga qaramay, ularning soni ortishda davom etgan. Yangi ta'lim g'oyalari va liberal qarashlar Buxoro aholisi, ayniqsa ijtimoiyu yuqori tabaqalar orasida keng tarqalgan, va bu qatlama farzandlari jadid o'qituvchilarining maktablarida tahsil olishni davom ettirgan.

1914-yil iyul oyida savdo-sotiq sohasi vakillari tomonidan siyosiy agentlik nomiga yuborilgan maxfiy murojaat ushbu jarayonning ijtimoiy zarurat darajasiga chiqqanini tasdiqlaydi. Ular murojaatda shunday yozganlar:

"...Bizning farzandlarimizni qisqa muddat ichida o'qish va hisobga o'rnatgan yangi usul maktablari oliv hazrat amir tomonidan 2–3 nafar mullaning shikoyatiga asosan yopildi. Mana, bir oyga yaqin vaqt o'tdiki, bolalarimiz o'qish o'rniiga ko'chada sanqib yurishibdi. Sizga yaxshi ma'lumki, biz Buxoro fuqarolari asosan savdogar va hunarmandlarmiz. Oramizda savodli odamlar kam, shu tufayli bolalarimiz tezda savodini chiqarib, savdoga oid yozuv-chizuv va hisob-kitob ishlarini yuritishlari maqsadga muvofiq. O'zimiz eski maktabda 7–8 yil o'qiganmiz, biroq savodsizligimizcha qolib ketganmiz; ulardan hech qanday foyda ko'rмаганмиз. Shu bois sizdan yopilgan maktablarning ochilishini o'tinib so'raymiz."

Bunday murojaatlarga hukumat hech qanday rasmiy javob bermagan bo'lsa-da, ahvolning keskinligiga qaramay, jadid maktablari o'z faoliyatları orqali jamiyatni yangilanish sari yetaklay oldi. Ushbu maktablar ta'lim metodikasi jihatidan an'anaviy madrasa tizimidan tubdan farq qilgan. Ular o'quvchilarni faqat diniy bilimlar bilan cheklab qo'ymasdan, ilmiy va madaniy bilimlarni ham o'rgatishga yo'naltirilgan edi.

Jadid maktablarida an'anaviy darslar bilan bir qatorda ilm-fan, tarix, geografiya kabi dunyoviy fanlar ham o'qitila boshlagan. O'qituvchilar nafaqat diniy, balki jahon adabiyoti, tarixiy asarlar va zamonaviy fan yutuqlarini ham yetkazganlar. Ushbu maktablarda interaktiv dars metodlari, mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan yondashuv va guruhiy faoliyatlar amalda qo'llanilgan. O'quv dasturlari hayotiy va amaliy bilimlarni qamrab olgan, diniy aqidalar bilan chegaralanmagan.

Ayniqsa, Buxorodagi jadid maktablarining eng muhim xususiyatlaridan biri qizlar uchun ta'lim imkoniyatlarining yaratilganidir. An'anaviy madrasalarda faqat diniy fanlar bilan cheklangan qizlar endilikda alohida darslarda zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish imkoniga ega bo'ldilar. Bu esa ayollarning jamiyatdagagi rolini kuchaytirish va ularning faol ishtirotkini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi.

Jadid maktablarining o'qituvchilari, odatda, yuqori saviyadagi ilmiy salohiyatga ega bo'lgan, ko'plari o'z davrining taniqli ziyorilari, pedagoglari va madaniyat arboblari bo'lgan. Ular o'quvchilarga nafaqat bilim berib, balki ularda milliy o'zlik, g'urur va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga harakat qilganlar.

Jadid maktablarining ta'siri faqat ta'lim sohasigagina emas, balki butun ijtimoiy va siyosiy hayotga ham taalluqli edi. Ular orqali xalqning erkin fikrlash, shaxsiy huquqlarini anglash va zamonaviy hayot talablariga moslashishiga zamin yaratildi. Bir tomondan, rus imperiyasi va sovet tuzumi ta'siri ostidagi xalqlarni uyg'otishga

harakat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy uyg'onish va mustaqillik g'oyalariga yo'naltiruvchi kuchga aylandi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, Buxorodagi jadidchilik harakati va yangi usul mакtablarining ta'lim tizimi, aslida, nafaqat ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishga, balki butun ijtimoiy hayotni yangilashga qaratilgan keng ko'lamli islohot harakati edi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan yangi pedagogik metodlar, ilm-fan asosidagi yondashuvlar va milliy uyg'onish g'oyalari yosh avlodni zamonaviy tafakkur va ilmiy dunyoqarash ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu harakat natijasida nafaqat an'anaviy ta'lim tizimida tub o'zgarishlar yuz berdi, balki jamiyatda ijtimoiy adolat, tenglik, erkinlik va intellektual taraqqiyot g'oyalari keng tarqaldi. Buxoro jadidlari olib borgan faoliyat, butun jamiyatni yangi bosqichga olib chiqishda muhim tarixiy vazifani bajardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismoil Gaspirinskiy. Turkiston. Sbornik statey. Toshkent: Sharq, 2005.
2. Yangi gap. // Turkiston. 1923-yil 7-fevral.
3. Inqilob jurnali. 1922-yil, 3-son.
4. Farhodjonova N.F. "Jadid harakati namoyandalarining jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri". Xorazm: Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 11/3, 2022. B. 84–85.
5. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 1997, 163-bet.
6. Qosimov B. Milliy uyg'onish. Toshkent: Ma'naviyat, 2002, 20-bet.
7. Turkistondagi jadidchilik harakatiga Mahmudxo'ja. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar. 2025-yil, 2-son, 9-mart.
8. The New Stage of Enlightenment in Turkestan. International Journal of Pedagogics, 2025. – B. 192–195.
9. Qosimov A.A., Axrorov I.D. The Methodical Principles of Organizing Students' Independent Work in Mathematics. Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11. – B. 38.
10. Axrorov I. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari. Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – № (raqami ko'rsatilmagan).
11. Donyorovich A.I. Jadidlarning darsliklar yaratish faoliyatiga oid ayrim mulohazalar. Conferencea, 2023. – B. 118–123.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
  - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
  - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03** Maxsus pedagogika
  - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07** Ta'limda menejment
  - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00** Tarix fanlari
  - 19.00.00** Psixologiya fanlari
  - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00** Kimyo fanlari
  - 03.00.00** Biologiya fanlari
  - 09.00.00** Falsafa fanlari
  - 10.00.00** Filologiya fanlari
  - 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.